

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
"Xavfsizlik" va "Kiberxavfsizlik" atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

ADABIYOTSHUNOSLIK

Q.V.Yo'lichiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldasheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lichiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
"Tarixi Rashidiy" asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

TILSHUNOSLIK

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Zar" va "Zarra" asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



УО'К: 94(575.1):338.43

**O'ZBEKISTONDA KOLLEKTIVLASHTIRISH ASOSIDA AGRAR SOHANING ISLOH
QILINISHI VA UNING OQIBATLARI**

**РЕФОРМА АГРАРНОЙ СФЕРЫ НА ОСНОВЕ КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ
И ЕЕ ПОСЛЕДСТВИЯ**

**AGRARIAN REFORM BASED ON COLLECTIVIZATION IN UZBEKISTAN AND ITS
CONSEQUENCES**

Xolmatov Mo'ydin Muxtorovich

Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirishning shart-sharoitlari tahlil etilgan, kollektivlashtirishning respublikadagi xususiyatlari ochib berilgan. Yoppasiga kollektivlashtirish natijasida o'zbek qishlog'i ijtimoiy tarkibida yuzaga kelgan o'zgarishlar bo'yicha nazariy xulosalar berilgan.

Аннотация

В данной статье проанализированы условия реализации политики коллективизации сельского хозяйства в Узбекистане, раскрыты особенности коллективизации в республике. Йоппасы были даны теоретические выводы об изменениях, произошедших в социальной структуре узбекского села в результате коллективизации.

Abstract

This article analyzes the conditions for the implementation of the policy of collectivization of agriculture in Uzbekistan, reveals the features of collectivization in the republic. Joppasi was given theoretical conclusions about the changes that occurred in the social structure of the Uzbek village as a result of collectivization.

Kalit so'zlar: yoppasiga kollektivlashtirish, qishloq xo'jaligi, o'zbek qishlog'i, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, ijtimoiy tarkib, kolxoz, sovhoz, "quloqlar", kambag'allar, o'tahol dehqonlar, paxtachilik.

Ключевые слова: массовая коллективизация, сельское хозяйство, узбекский кишлак, сельскохозяйственное производство, социальная структура, колхоз, совхоз, «кулаки», бедняки, середняки, хлопководство.

Key words: mass collectivization, agriculture, Uzbek village, agricultural production, social structure, kolhoz (collective farm), sovhoz (state farm), "kulaks", poor peasants, middle peasants, cotton growing.

KIRISH

Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish siyosatining amalga oshirilishi sovet davri tarixidagi eng ziddiyatli voqealardan biridir. Ammo sovet davrida u haqdagi bor haqiqatni aytish, yozish, mohiyatini ochib berish imkoniy yo'q edi. Kollektivlashtirish juda katta jismoniy, ma'naviy-ruhiy yo'qotishlarga olib keldi. Bu jarayonda keng ko'lamlı qatag'on siyosati olib borildi. Eng muhimmi, qishloq xo'jaligini yuritishning vaqt sinovidan o'tgan an'anaviy tartiblariga putur yetib, dehqonlar amalda davlatga batamom qaram bo'lib qoldilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida mamlakatimiz va xorijiy tarixshunos olimlar R.Aminova, O.B.Djamalov, G.R.Rizayev va boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolani yozishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, tizimlilik, xolislik va determinizm kabi usullaridan foydalanildi. Xususan, ishda qiyosiy-tarixiy, analiz, sintez, retrospektiv kabi umumfalsafiy metodlar qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sovet davlatining sotsialistik tuzum qurish rejasida mamlakatni sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va "madaniy inqilob" kabi uchta asosiy vazifa kun tartibiga qo'yilgan.

TARIX

Kollektivlashtirish siyosati ushbu rejasining tarkibiy qismi sifatida butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham shoshma-shosharlik bilan, qishloq aholisiga zo'rlik ishlatalish, qo'rqtish usullari orqali majburan amalga oshirildi.

O'zbekistondagi qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish harakati butun mamlakat uchun yagona bo'lgan bitta andoza bo'yicha amalga oshirila boshladi. Holbuki, respublikaning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy holati, sinfiy tarkibining xilma-xilligi bilan boshqa respublikalardan keskin farq qilar edi.

Respublikadagi kollektivlashtirish siyosatida kommunistik partiya yetakchi rol o'ynadi. Bu siyosatni o'tkazishga rahbarlik qiladigan respublika shtabi tuzilib, unga O'zKP(b) Markaziy Komiteti, O'zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining mas'ul hodimlari kiritildi. 1930-yil uchun belgilangan kollektivlashtirish rejasи tuzib chiqilib tasdiqlandi. Rejada kollektivlashtiriladigan rayonlar, ularni mablag' va jihozlar bilan ta'minlash, "qulqoq"larning mol-mulkini musodara qilish, ularni kollektivlashtirilayotgan rayonlardan tashqariga surgun qilish kabi tadbirlar belgilandi²⁰.

VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining 1930-yil 28-yanvarda qabul etgan "Kollektivlashtirish va quloqlarni sindifatida tugatish tadbirlari to'g'risida"gi qarorida O'zbekistonda yoppasiga kollektivlashtiriladigan 18 ta rayon belgilandi²¹. Shu qaror asosida 31-yanvarda O'zKP(b) Markaziy Komitetining ham tegishli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra boy-quloq xo'jaliklari qishloq xo'jalik soliqlarini yakka tartibda to'lashlari va kollektivlashtirilayotgan rayonlardan boshqa hududlarga surgun qilinishlari belgilandi. Ularga tegishli hovli-joy, mehnat qurollari, ish hayvonlari, mol-mulkulari, bog'lar, tutzorlar, mol-qo'yulari musodara qilinadigan bo'ldi.

Mayda tovar dehqon xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotini orqaga tortib, dehqonchilikda hanuz qoloq asbob-uskunalar ishlatalayotgan, hayot esa qishloq xo'jaligiga yangi texnikani tatbiq qilish, yalpi mahsulotni ko'paytirish, hosildorlikni ko'tarish va qo'riq yerlarni o'zlashtirishni talab etayotgandi. Ayni shu sharoit kollektivlashtirishni zaratratga aylantirgan.

Biroq haqiqatda kollektivlashtirishda ixtiyoriylikka mutlaqo amal qilinmadni, bu jarayonda zo'rlik ishlatalish, quloq qilish, og'ir soliqlar solish, surgun, qatag'on qilish amaliyoti qo'llanildi.

VKP(b) O'rta Osiyo byurosining 1930-yil 28-yanvardagi qarori va bunga muvofiq respublika tashkilotining qarorlari asli mohiyatan hato edi, u mahalliy xalqning tub manfaatlariga qarshi qaratilgan, mustabid markazning bevosita talabi bilan qabul etilgan edi. Shu bois bu qarordan va uning ijrosidan xalq ommasi norozi edi. Eng asosiysi bu qarorda milliy rayonlardagi mahalliy sharoit, o'zbek dehqonlarining milliy ruh-kayfiyatlarini xisobga olinmagan edi.

Milliy respublikalarda, jumladan O'rta Osiyo respublikalarida qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jarayonidagi burilish mamlakatning boshqa mintaqalariga qaraganda biroz kechroq sodir bo'ldi. 1929-yilda O'zbekiston kolxozlariiga dehqon xo'jaliklarining atigi 3,4 foizi birlashgan, ular ham asosan kambag'al dehqon xo'jaliklari edi²².

Mavjud kolxozlar asosan kichik bo'lib (ularda o'racha 19 ta xo'jalik birlashgan edi), ularda yangi kirib kelgan qishloq xo'jalik texnikasi arzimas hajmda va noratsional foydalanilgan, shuningdek, bu kolxozlar mehnatni yomon tashkil etilishi bilan ajralib turardi. Ya'ni, bunday kolxozlarning ishlab chiqarish samaradorligi juda past edi. Biroq, ularning ba'zi birlari, bir qator kamchiliklarga qaramay, yakka tartibdagи kambag'al dehqon xo'jaliklariga nisbatan yaxshiroq mehnat unumdarligi va yuqori tovarliliги bilan ajralib turardi²³. Chunki, yangi tashkil etilayotgan kolxozlarga davlat tomonidan katta yengillik va imtiyozlar berilar edi. Bunday imtiyozlar kredit, asbob-uskunalar, urug'lik va yetishtiriladigan hosil uchun (asosan paxta) oldindan avans berish va xokazolardan iborat edi. Bu kabi holatlar kambag'al va o'rtahol dehqonlar ommasining kolxozlarga jaib qilinishini kuchaytirgan. Ayniqsa, kolxozlarga MTS (Mashina-traktor stansiyalari) orqali traktorlar yetkazib berish, kolxozlarga soliq bo'yicha yordam va imtiyozlar berish, yer tuzish ishlari va boshqalar – bularning barchasi kolxozlarning miqdor va sifat jihatdan o'sishi uchun qulay sharoit yaratdi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Farg'ona viloyat bo'limi, (O'zR PAA FVB), 110-fond, 1-ro'yxat, 468-ish, 33-42-varaqlar.

²¹ O'zbekiston Milliy arxiv (O'z MA), R-837-fond, 8-ro'yxat, 319-ish, 28-varaq.

²² O'z MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 5092-ish, 157-varaq.

²³ Джамалов О.Б. Социально-экономические предпосылки сплошной коллективизации в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1950. – С. 112.

Sovet qishloqlarining rivojlanishidagi sezilarli o'zgarishlarni kuzatish uchun dehqonlarning turli sinf guruhlariga tabaqlashtirilgan yondashuvi tatbiq etildi. Kollektivlashtirish ishida kambag'al dehqonlar oldingi qatorga qo'yildi. Ko'p yillar davomida yakka holda faoliyat yuritgan kambag'al dehqonlar yangi iqtisodiy siyosat sharoitida ham kambag'allikdan o'rta darajaga ko'tarila olmagan edilar, ular uchun bu vaziyatdan chiqishning yagona yo'li hukmon tuzum tomonidan kolxozlarga birlashish deb hisoblandi. Kambag'al dehqonlar uchun bundan boshqa chora ham yo'q edi, aslida. Chunki O'zbekistonda yoppasiga kollektivlashtirish arafasida yersiz, kam yerli kambag'al dehqonlarning aksariyati yirik yer egalari qo'lida chorikorlik qilar yoki og'ir shartlar evaziga ijara yerbosqich qilardi. Bu ahvolda ularning moddiy ahvoli nihoyatda og'ir edi. Kolxozi tuzumi kambag'al dehqonlar uchun "boy-quloqlar asoratidan" qutulishning birdan-bir chorasi deb hisoblandi. Shuning uchun ham kambag'al dehqonlar kommunistik partiya va sovet hukumatining kolxozlarga birlashish haqidagi chaqirig'iga birinchi bo'lib javob berdi va bu ommaviy kampaniyani qo'llab-quvvatladi.

Kollektivlashtirish sharoitida o'rtahol dehqonlar bilan vaziyat ancha murakkab edi. O'rtahol dehqonlar xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotda kuchliroq ildizlarga ega bo'lib, ular ma'lum darajada ishlab chiqarish vositalariga (yer, ot-ulov, qishloq xo'jalik asbob-uskunalarini va boshqalar) ega bo'lgan, ular an'anaviy mayda ishlab chiqarish usullariga ancha qattiq bog'langan edilar. Shu sababli ham o'rtahol dehqonlar uzoq vaqt davomida kolxoz tuzumiga ancha ishonchsz munosabatda bo'lib keldi. Biroq 1929-yilning ikkinchi yarmidan e'tiboran o'rthol dehqonlar ham asta-sekin kolxozlarga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la boshladilar. Bunga asosan, davlatning kolxozlarga ko'rsatayotgan iqtisodiy yordami va kolxoz a'zolariga belgilayotgan turli imtiyozlari muhim rol o'ynadi. Kolxozi qurilishi masalasida o'rtahol dehqonlar kambag'al dehqonlar bilan o'zaro birlasha boshladi. Kambag'al dehqonlarning kolxozlar tomon yo'naliishi o'rtahol dehqonlar uchun alohida ahamiyatga ega edi.

Kolxozlarga endi kambag'al dehqonlarning alohida guruhlari emas, balki minglab dehqonlar qo'shila boshladi. Bu davrda kolxozi qurilishining ahamiyati kolxozchilarning miqdoriy o'sishida emas, balki kollektivlashtirish harakatining yangi sifat darajasiga ko'tarilishida edi. Umuman, 1930-yil boshlariga kelib, O'zbekistondagi mavjud kolxozlarda o'rtahol dehqonlarning ulushi 24,1 foizga ko'tarilgan edi²⁴.

Yoppasiga kollektivlashtirishga o'tilishi bilan, sovet hukumati kolxozlar tashkil etishning majburlash metodlari bilan bir qatorda iqtisodiy vositalardan ham foydalandi. Bu jarayonda asosiy e'tibor yarim proletar deb atalgan kambag'al-batraklar qatlamini xalq xo'jaligining sotsialistik sektoriga, koxozlarga, sovxozlarga va MTSga jalb qilishga qaratila boshlandi. Kolxozlarga kirgan kambag'al dehqonlarni davlat moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatladi. Kolxozi a'zolariga iqtisodiy yordam ko'rsatish uchun moliyaviy fondlar tashkil etildi, kolxozi a'zolariga keyingi hosilga qadar avans berish, ish haqi bilan ta'minlash uchun maxsus fondlar (g'alla, pul) ajratildi va hokazo²⁵.

1930-yil boshida O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ishchilari ittifoqi Markaziy komiteti Respublikaning barcha rayonlariga kolxozlarga a'zo bo'lgan kambag'al-batraklarga yordam fondining 50 foizini o'tkazish to'g'risida ko'rsatma berdi, unga binoan 1930-yilning aprel oyida kolxozlarga kirgan kambag'al dehqon va batraklarga 23 ming 770 rubl miqdorida yangi hosilga qadar o'zlarini tiklab olishlari uchun moddiy yordam ko'rsatildi²⁶. Shuningdek, kolxozlarga a'zo bo'layotgan batraklarga iqtisodiy yordam berish uchun sug'urta organlari tomonidan 100 ming rubl ajratildi. Bu kabi fondlarni "Kolxozsentr" ham tashkil qildi, bu fondning a'zolik badallari hisobidan kambag'al dehqonlarga 30 ming rubl berildi²⁷. 1930-yil oxirlarigacha O'zbekistondagi kolxozlarga 56 ming 231 nafar batraklar a'zo bo'lib kirdi²⁸.

1932-yili sovet mamlakatining markaziy rayonlarida qishloq xo'jaligini "sotsialistik qayta qurish"ni tugallash yili deb e'lon qilindi. Bu davrga kelib butun sovet mamlakatida majburan o'tkazilgan kollektivlashtirish natijasida 211 mingdan ortiq kolxozlar tashkil etildi, bu kolxozlar o'zida

²⁴ Правда Востока, 1930 г., 18 марта.

²⁵ O'z MA, R-775-fond, 1-ro'yxat, 263-ish, 329-varaq.

²⁶ O'z MA, R-775-fond, 1-ro'yxat, 263-ish, 330-varaq.

²⁷ "Батрак" газетаси, 1930 йил 18 декабрь.

²⁸ Современное крестьяноведение и аграрная история России в XX веке. – Москва: Политическая энциклопедия, 2015. – С. 92.

TARIX

15 millionga yaqin dehqon xo'jaliklarini birlashtirgan edi²⁹. 1932-yilda mamlakat bo'yicha g'alla ekinlarining qariyb 80 foizi kolxoz va sovxozlarda yetishtirildi. Shu tariqa, hukmron kommunistik partiya tomonidan 1930-yil yanvar oyida e'lon qilingan qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish rejasi asosan, bajarildi³⁰.

VKP(b) Markaziy Komitetining 1930-yil 5-yanvardagi "Kollektivlashtirish sur'ati va kolxoz qurilishiga davlat yordami to'g'risida" qarorida birinchi guruhga kiritilgan rayonlarda 1931-yil yoziga kelib, dehqon xo'jaliklarining 65,3 foizi, ikkinchi guruhga kirgan rayonlarda 1932-yil yozida dehqonlarning 68,7 foizi kollektivlashtirilgan edi.

O'zbekistonning uchinchi guruhga kiritilgan paxtachilik rayonlarida yoppasiga kollektivlashtirishni 1932-yil oxiri – 1933-yil boshida tugallash rejashtirilgan edi. 1933 yil boshiga kelib, respublikaning 79 ta rayonidan 61 tasida jami dehqon xo'jaliklarining 74,9 foizi kolxozlarga kiritilgan edi³¹. Kolxozlarga birlashtirilgan dehqon xo'jaliklarining soni jihatidan O'zbekiston ittifoqdosh respublikalar orasida oldingi o'rinnlarda turardi. Bu ham respublikada kolxoz qurilishi qanchalar shoshma-shosharlik va zo'ravonlik bilan o'tkazilganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi yoppasiga kollektivlashtirilgan rayonlarda "quloq va boylarni sinf sifatida tugatish" choralarini amalga oshirildi. Agar 1929-yilda "qishloq ekspluatatorlari" deb atalgan bunday xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklari umumiy sonining 5 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1932-yilda ular kamayib, 1,1 foizga tushdi, keyingi yillarda esa batamom tugatildi³².

1930-1932-yillar O'zbekiston qishlog'ini "sotsialistik" qayta qurishning asosiy yillari deb e'lon qilindi. Dehqon xo'jaliklarining asosiy ommasi 1932-yildayoq majburan kolxozlarga birlashtirildi. Endilikda respublika qishloq xo'jaligi va uning butun tarmoqlari taqdirini kolxoz va sovxozi hal qila boshladi. Shunisi muhimki, O'zbekistonda kollektivlashtirish yakunlanib, kolxoz va sovxozi tashkil etilgach, qishloq xo'jaligida paxtachilik asosiy tarmoqqa aylandi. Respublikada 1933-yilda Ittifoq paxta mustaqilligini ta'minlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston paxta ekin maydonlari 1929-1932-yillar ichida 530 ming gektardan 928 ming gektarga yetdi, paxta yetishtirish 5200 tonnadan 75300 tonnaga ko'paydi³³. O'zbekistonda 1933-yildayoq paxta respublika tayyorlab beradigan qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmining 81,5 foizini tashkil etdi, 1937-yilga kelib bu ko'rsatkich 93,4 foizga yetdi³⁴. Sovet mamlakati paxtasini yetishtirishda O'zbekiston asosiy va hal qiluvchi respublikaga aylandi.

Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish uning ijtimoiy tuzilishiga jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Kollektivlashtirishdan ilgari O'zbekiston qishloq xo'jaligida qoloq o'rtasidagi texnikasini ishlataligida 800 ming mayda, tarqoq dehqon xo'jaliklari bo'lib, birinchi besh yillik (1928-1932) ning oxirida respublikada 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxozi tuzildi³⁵.

Shunday qilib, XX asrning 30-yillaridan e'tiboran qishloq joylarda asosiy ijtimoiy-ishlab chiqarish xususiy xo'jalik yuritishning tashkiliy shakllaridan biri sifatida dehqon xo'jaligi emas, balki kolxozlar asosiy o'rinn egallay boshladi. Kolxozlar o'z faoliyatining dastlabki yigirma yilligida bitta qishloq yoki qishloqning ma'lum bir qismi dehqon xo'jaliklarining artel birlashmalari sifatida namoyon bo'lib, shu munosabat bilan ular azaliy qishloq jamoasining ijtimoiy funksiyalarining uzviy davomchilariga aylandi. Qishloqning ijtimoiy jihatdan o'zini o'zi tashkil etishning ko'p asrlik tajribasi dehqon xo'jaligining tarixan yangi jamoaviy amaliyotlari ushbu o'z-o'zini tashkil etishga ma'lum darajada mos kelishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Kolxoz va sovxozlarning paydo bo'lishi bilan o'zbek qishloqlarining ijtimoiy tuzilishi tubdan o'zgara bordi. Bunda dehqon aholisining yangi ijtimoiy qatlamlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular

²⁹ Коллективизация сельского хозяйства. Важнейшие постановления Коммунистической партии и Советского правительства 1927-1935. /Отв. ред. П.Н. Шарова. – Москва: Изд. АН СССР, 1957. – С. 256.

³⁰ Аминова Р.Х. Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1995. – С. 28.

³¹ История крестьянства СССР. История советского крестьянства. В 5 томах. / Том 2. Советское крестьянство в период социалистической реконструкции народного хозяйства. Конец 1927-1937. – М.: Наука, 1986. – С. 219.

³² Ризаев Г.Р. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1965 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1967. – С. 43.

³³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида /Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 357.

³⁴ O'z MA, R-837-fond, 8-ro'yxat, 346-ish, 112-114-varaqlar.

³⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида /Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 373.

bu davrgacha qishloqda mavjud bo'lmagan kolxozchilar va sovxozi ishchilari edi. Ularning soni dastlabki davrda nisbatan ozchilikni tashkil qilgan bo'lsa-da, "sotsialistik" qurilish yo'liga o'tgan sovet mamlakatida bu qatlama katta ijtimoiy istiqbolga ega bo'ldi, ularning soni yil sayin ko'payib bordi.

Kolxoz tuzumining qaror topishi o'zbek dehqonlari hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. "Sotsialistik" ishlab chiqarish va ishlab chiqarish vositalarining "sotsialistik mulk" ekani asosida kolxoz dehqonlari, yangi "sotsialistik jamiyat" sinfi paydo bo'ldi. Asosiy dehqonlar ommasi bo'lgan kolxozchilar sovet hokimiyatining qishloqdagi mustahkam tayanchi bo'lib qoldi.

Qishloq xo'jaligining kollektivlashtirilishi natijasida yirik sotsialistik sanoat bilan mayda dehqon xo'jaligi o'tasidagi ziddiyatga amalda barham berildi, uning natijasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qulay sharoit yaratildi. Qishloq xo'jaligi endi sanoatning iqtisodiy manfaatlari uchun rivojlantirila boshladi.

Sovetlar andozasi asosida aholining tabaqalanishi oqibatida qishloq aholisi keskin ijtimoiy o'zgarishlarga uchradi. Qishloq xo'jaligining kollektivlashtirilishi natijasida o'zbek qishlog'idagi "boy va quloqlar" tugatildi, ikkita "do'stona" sinf: "sotsialistik" tipdagi Kolxozchi dehqonlar va qishloq xo'jalik ishchilari tarkib topdi. Bu o'zgarishlarga sovet davrida sotsializmning eng katta yutug'i sifatida qaraldi³⁶. Sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlari ishchilar sinfi va dehqonlar ma'naviy-siyosiy birligining assosiga aylandi.

Kolxozlarga majburan kiritilgan qishloq aholisi barcha asosiy fuqarolik huquqlaridan, avvalo erkin ko'chish huquqidan, kasb faoliyatini tanlash huquqidan mahrum etilgan edi. Kolxozchilarning pastportlari olib qo'yilgan, kolxoz hududidan ularning chiqib ketishlari taqiqlangan edi. O'zboshimchalik bilan chiqib ketishga urinishlar esa 5 yildan 10 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilinar edi³⁷.

Kollektivlashtirish natijasida qishloq xo'jaligiga og'ir zarba berildi. Ayniqla, chorvachilikka og'ir ziyon yetkazildi, g'alla, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish keskin qisqardi. Oqibat shu bo'ldiki, 1933-yoldayoq sovet davlatida, shu jumladan O'zbekistonda ham ocharchilik yuz berdi, ocharchilikdan minglab yurtdoshlarimiz bevaqt hayotgan ko'z yumdi.

XULOSA

Umuman, sovet davlatida bolsheviklar rahbariyati tomonidan amalga oshiriligan kollektivlashtirish siyosati O'zbekiston qishloqlarida bir qator ijtimoiy o'zgartishlarga olib keldi. Bu siyosat birinchi navbatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish munosabatlari jiddiy ta'sir ko'rsatib, uni tubdan o'zgartirib yuborgan bo'lsa, ikkinchi bir tomonдан qishloq aholisining ijtimoiy strukturasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Kollektivlashtirish oqibatida qishloqdagi azaliy ijtimoiy qatlamlar sun'iy ravishda o'zgartirib yuborildi, ularning "qulog va boy" sinf deb atalgan qismi batamom tugatib yuborildi. Sovet davrining ijtimoiy hayotdagি tamoman yangi mahsuli bo'lgan kolxozchi va sovxozi ishchisi degan yangi qatlama vujudga keldi va ularning soni keyingi yillarda keskin ko'payib bordi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида /Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000.
2. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). Лойиха раҳбари ва масъул муҳаррир Д.А. Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000.
3. История крестьянства СССР. История советского крестьянства. В 5 томах. / Том 2. Советское крестьянство в период социалистической реконструкции народного хозяйства. Конец 1927-1937. – М.: Наука, 1986.
4. Ризаев Г.Р. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1965 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1967.
5. O'z MA, R-837-fond, 8-ro'yxat, 346-ish, 112-114-varaqlar.
6. Современное крестьяноведение и аграрная история России в XX веке. – Москва: Политическая энциклопедия, 2015.
7. Коллективизация сельского хозяйства. Важнейшие постановления Коммунистической партии и Советского правительства 1927-1935. /Отв. ред. П.Н. Шарова. – Москва: Изд. АН СССР, 1957. – С. 256.
8. Аминова Р.Х. Осуществление коллективизации в Узбекистане (1929-1932 гг.) – Ташкент: Фан, 1977. – С. 70.

³⁶ Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). Лойиха раҳбари ва масъул муҳаррир Д.А. Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 86.

* Izoh: 1562-1598-yillarda Fransiyada katoliklar va protestantlar o'tasidagi fuqarolar urushi.

TARIX

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архивининг Фарғона вилоят бўлими, (ЎзРПАА ФВБ), 110-фонд, 1-рўйхат, 468-иш, 33-42-варақлар.
10. Джамалов О.Б. Социально-экономические предпосылки сплошной коллективизации в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1950. – С. 112.
11. Правда Востока, 1930 г., 18 марта.
12. O'z MA, R-775-fond, 1-ro'uxat, 263-ish, 329-varaq.
13. O'z MA, R-775-fond, 1-ro'uxat, 263-ish, 330-varaq.
14. "Батрак" газетаси, 1930 йил 18 декабрь.